


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**J.Sultonov**

Chingizxon va Jin davlati o'tasidagi diplomatik va harbiy munosabatlarning tarixiy tahlili ..... 224

**M.A.Boltaboyev**

Sovet hokimiyatining O'zbekistondagi musulmon bo'limgan aholiga nisbatan olib borgan zo'ravonlik siyosati ..... 234

**Sh.B.Jumayeva**

Globallashuv davrida boqiy marosim: Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va mozorlarida ziyorat ..... 239

**M.R.Sodiqova**

Ipakchilikning O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mni (1991-2021-yillar) ..... 244

**A.X.Nigmatov**

Shanxay hamkorlik tashkiloti vujudga kelishining tarixiy asoslari ..... 251

**M.B.Nazirov**

Rossiya imperiyasi ko'chirish siyosatining Farg'ona viloyati tub aholisining iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'siri ..... 257

**B.N.Rizayev, Б.Н.Ризаев, B.N.Rizaev**

A.N.Kasigin islohotlarining O'zbekiston qishloq xo'jaligida joriy etilishi ..... 260

**M.A.Maxmudov**

XX asrning 20-30-yillarida O'rta Osiyodagi madaniy obidalarni saqlab qolishda sredazkomstarisning faoliyati ..... 266

**I.B.Boxodirov**

Birinchi jahon urushi yillarda turkiston harbiy okrugida mahalliy qurolli kuchlar va harbiy asirlar masalasi ..... 270

**J.Sultonov**

Xorazm imperiyasining vujudga kelishi va Muhammad Xorazmshohning Mo'g'ullar bosqiniga qadar olib borgan harbiy-diplomatik strategiyasi ..... 273

**O.B.Nizomiddinov**

O'zbekiston SSRda lotin yozuvining joriy etilishi: muammo va ziddiyatlar (Farg'ona viloyati misolida) ..... 279

**O.H.Jaynarov**

O'zbekiston SSR advokaturasi tizimi: islohot va natijalar (XX asr 20-yillari) ..... 284

**O.M.Normatov**

Farg'ona vodiysi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq munosabatlari tarixining ayrim jixatlari xususida ..... 289

**Y.A.Shukurillayev**

Buxoro amirligida qo'shin qarorgohlarining o'rnatilish taomillari ..... 293

## ILMIY AXBOROT

**Z.X.Oxunova**

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo sohasidagi liberallashuvni tadqiq etishdagি falsafiy yondashuvlar ..... 297

**X.J.Isomiddinov**

Jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda yoshlar tarixiy-falsafiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy jihatlari ..... 300

**M.B.Nazirov**

Ko'chiruvchilik siyosatining Farg'ona viloyati tub xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri .... 304



UO'K: 9C (C52)

**BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA TURKISTON HARBIY OKRUGIDA MAHALLIY  
QUROLLI KUCHLAR VA HARBIY ASIRLAR MASALASI**

**МЕСТНЫЕ ВООРУЖЕННЫЕ СИЛЫ И ВОЕННОПЛЕННЫЕ В ТУРКЕСТАНСКОМ  
ВОЕННОМ ОКРУГЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ**

**LOCAL ARMED FORCES AND PRISONERS OF WAR IN THE TURKESTAN MILITARY  
DISTRICT DURING THE FIRST WORLD WAR**

**Boxodirov Ixtiyor Boxodir o'g'li** 

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti v.b. (PhD)

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada 1914-1918 yillarda Rossiya imperiyasi va uning tarkibidagi Turkiston harbiy okrugining Birinchi jahon urushidagi ishtiroki tahlil etilgan. Maqolada asosiy e'tibor Turkiston o'lkasida tuzilgan va jahon urushida ishtirok etgan mahalliy qurolli kuchlar va Turkistonga joylashtirilgan Germaniya hamda Avstriya-Vengriyalik harbiy asirlar taqdiriga qaratilgan.*

**Annomatsiya**

*В данной статье анализируется участие Российской империи и Туркестанского военного округа в Первой мировой войне в 1914-1918 гг. Основное внимание в статье уделяется судьбе местных вооруженных сил, сформированных в Туркестане и участвовавших в мировой войне, а также немецких и австро-венгерских военнопленных помещенных в Туркестан.*

**Abstract**

*This article analyzes the participation of the Russian Empire and the Turkestan Military District within it in the First World War in 1914-1918. The main focus of the article is on the fate of the local armed forces formed in Turkestan and participating in the World War and the German and Austro-Hungarian prisoners of war placed in Turkestan.*

**Kalit so'zlar:** harbiy okrug, imperiya, artilleriya, batalyon, polk, front, istehkom, polk, asir, harbiy lager, lazaret.

**Ключевые слова:** военный округ, империя, артиллерия, батальон, полк, фронт, укрепление, полк, пленный, военный лагерь, лазарет.

**Key words:** military district, empire, artillery, battalion, regiment, front, fortification, regiment, prisoner, military camp, infirmary.

**KIRISH**

1914-yil 28-iyunda Sarayevoda Avstro-Vengriya taxt vorisi Frans Ferdinand o'ldirilishi dunyoning etakchi ikkita harbiy-siyosiy ittifoqlari o'rtasida ("To'rtlar ittifoqi" va "Antanta") jahon urushining kelib chiqishiga bahona bo'ladi. Rossiya imperiyasidagi harbiy safarbarlik Turkiston harbiy okrugini ham chetlab o'tmagan. 1914-yil o'lkadagi rus aholisidan 22 999 kishi armiyaga olinadi. 1915-yilda harakatdagi armiya saflariga safarbar qilinganlar soni 70 000 kishidan ortadi[1] (Yettisuvdan 25 329, Sirdaryordan 15 929, Farg'onadan 9013, Kaspiyotidan 4916, Samarqanddan 3585 va Buxoro amirligi hududida yashovchi ruslardan 2173)[2].

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA TADQIQOT USLUBLARI**

Tadqiq etilayotgan davr tarixini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruuhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan manba va adabiyotlar; 2) sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar, risola va maqolalar; 3) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 4) xorijiy adabiyotlar.

Rossiya imperiyasi hukmronligi yillari va sovet davrida yaratilgan asarlarda Turkiston harbiy okrugi tarixiga doir masalalar bir tomonlama mavjud tuzum manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilingan. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda ham harbiy okrug faoliyati, uning Turkiston o'lkasida mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi roli va chegaradosh mamlakatlar bilan munosabatlarda imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyati etarli darajada yoritilmadi. Shuning uchun ham mazkur yo'nalishdagi tadqiqotni amalga oshirish dolzarb hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir.

## TARIX

Tadqiqot ishini olib borishda muammoviy, miqdoriy va qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-xronologik, tizimlilik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI**

Jahon urushi boshlangach Turkiston harbiy okrugi tarkibidagi A.V.Samsonov qo'mondonligidagi 1-Turkiston armiya korpusi Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan chegaradagi "Sharqi front"ga, general L.V.Lesh qomondonligidagi 2-Turkiston armiya korpusi esa Usmoniyalar imperiyasiga qarshi harbiy harakatlar bo'layotgan "Kavkaz fronti"ga safarbar etiladi.

Birinchi jahon urushi yillarda Sharqi frontda polkovnik S.I.Drozdovskiy va polkovnik S.P.Zikov qo'mondonligidagi Turkman otliqlar polkining faoliyati alohida e'tiborga molik. Turkmanlarga xarbiy mutaxassislar, muxbirlar hatto raqiblar yuqori baho bergen. Ularni o'tmishdan kelgan qadimiy jangchilarga, mug'ullar kabi shijoatli suvoriylarg'a o'xshatib charchamasliklari, birdamliklari va jangovorlik salohiyatlari tufayli dunyodagi birinchi raqamli otliqlar deb atashgan. Ularga "baland bo'yli, mahobatli va ayni paytda nozik, haykallardek turishadi, ammo sharqona ko'zlar ularni tirikligini bildirib turadi" deb tarif berishgan[3].

Turkman polki ilk bor 1914-yil oktabr-dekabr oylarida Polshadagi Lodz operatsiyasida qatnashgan. 1914-yil 23-noyabrd Daupitse-Duje qishlog'i yaqinida polkning 1-eskadroni nemis piyodalari polkiga katta talofat etkazgan[4]. Polk 1915-yil aprel-may oylarida Bukovinada 32-korpusi tarkibida 7-Avstriya armiyasiga qarshi Dnestrorti janglarida qatnashadi. Turkmanlar 26-mayda Chernovitsda 822 avstriyalik askarlarni asir oladi[5]. Turkman otliqlar polkining o'zining eng katta muvaffaqiyatlari "Brusilovcha hujum" davriga to'g'ri keladi. Brusilov operatsiyasida Turkman polki 11-armiya korpusi tarkibida ishtirok etadi. 27-mayda (9-iyun) turkmanlar Avstro-Vengriyaning mag'lubiyatga uchragan 41,45-piyoda va 8-otliq diviziyalari qoldiqlarini ta'qib qilib 1500 harbiyni asirga olgan. 1916-yil 28-mayda (10-iyun) Dobronoutsdag'i Yerkouts qishlog'i atrofidagi jangda turkmanlar 2000 ga yaqin dushmani yo'q qilib, 3000 ga yaqin avstriyalik soldat va 40 dan ortiq ofitserni asir oladi. 6 ta pulemyot qo'lga kiritiladi. Faqat shtab-rotmistr Bek-O'zarov qo'mondonligidagi 3-turkman eskadronining o'zi 3 ta ofitser va 500 dan ko'proq dushmani asir olib 2 ta pulemytoni qo'lga kiritgandi[6].

1917-yildagi harbiy harakatlarda Turkman polki mamlakat ichkarisida xizmat qilgan. 1917-yil 8-armiya qo'mondoni general L.G.Kornilov (1870-1918) buyrug'i bilan kornet Xon Xojiyev qo'mondonligida armiya shtab kvatirasini qo'riqlash uchun polk tarkibidan alohida harbiy qism tuziladi. 1 Jahon urushi yillarda Turkman polkining jami 627 jangchisidan 67 nafari "Avliyo Georgiy" ordeni bilan, 70 dan ortig'i esa boshqa orden va medallar bilan taqdirlangan[7].

Turkiston harbiy okrugi uchun I jahon urushi yillari urush frontlarida qo'lga olingan harbiy asirlarni okrug hududiga joylashtirilishi bilan ham xarakterlanadi. Din, madaniyat va milliy qardoshlik rishtalari mavjudligi sababli turk asirlari Turkistonga joylashtirilmagan. Turkistonga ilk harbiy asirlar 1914-yil sentabrdan keltirila boshlagan. 1915-yil bahorda kelib asirlar soni 50 000 ga yaqinlashgan, 1916-yil 1-yanvarda Turkistonda 82 195 nafar harbiy asir saqlanar edi. Ulardan 2893 nafari Germaniya, 79 302 tasi Avstro-Vengriya askarları edi[8].

Dastlabki vaqtarda asirlar uchun maxsus lagerlar qurilgan. Ularning soni dastlab 25 taga[9], keyinroq 37 taga etkazilgan. Harbiy asirlarning 54% Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Ashxobod shaharlari va Toshkent yaqinidagi Troitsk harbiy lageriga joylashtiriladi[10]. Sanitariya sharoitlari juda yomonligi sababli lagerlardagi asirlar orasida tif, malyariya, singa epidemiyalari ko'p marotaba takrorlanib turgan. Natijada 1914-1917 yillarda Turkistonda 40 000 ga yaqin asirlar halok bo'lgan[11].

Turkistonda qolgan juda oz sonli harbiy qismlar bilan asirlarni qo'riqlash juda og'irligi sababli asirlar orasida Afg'oniston va Eron hududiga qochib o'tish hollari juda ko'p uchragan. 1914-1915 yillarda 489 harbiy, 1916-yili 23 ofitser va 550 askar lager, ish joyi va lazaretlardan qochgan. 1917-yil martigacha Turkistondagi harbiy asirlardan 72 ofitser, 1457 askar qochib ketgan. Okrug hududidan qochishlar, lagerlardagi turli epidemiyalar va asirlarning bir qismini Rossiyaga majburiy mehnat ishlariiga olib ketilishi sababli 1917-yil sentabriga kelib Turkiston harbiy okrugiga joylashtirilgan harbiy asirlar soni 41 285 (37 720 tasi Avstro-Vengriylik edi) nafargacha kamaygan[12].

**XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki I jahon urushi va unda Rossiya imperiyasining ishtiroki Turkiston o'lkasini ham chetlab o'tmagan. THO dagi muntazam armiya korpuslari va Yevropa

millatiga mansub aholi urush frontlariga safarbar etiladi. Birinchi jahon urushidagi Turkman otliqlarining ishtiroki polkning frontlardagi eng muhim jang maydonlariga doimiy safarbar etilishi bilan harakterlanadi. Bunda Turkmanlar polki yagona armiya tarkibida harakat qilmay frontlardagi yordamchi kuchlar zarur bo'lgan armiyalar tarkibiga yuborilgan. Harbiy asirlarning Turkiston hududiga joylashtirilishi esa okrug oldida qo'shimcha murakkabliklar keltirib chiqargan.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mo'minov I.M. Samarqand tarixi. I tom. – Toshkent: Fan, – B. 357.
2. Cloe Drieu, Alexander Morrison. The Central Asian revolt of 1916. – Manchester, 2020. – P. 61.
3. Олейников А.В. Текинский конный полк — элитная кавалерийская часть русской армии в период Первой мировой войны // Военно-исторический журнал. № 6. 2016. – С. 11, 13.
4. Олейников А.В. Текинский конный полк в Первой мировой войне. Битва гвардий//bgtv.ru. 2022.01.07.
5. Олейников А.В. Захвачены в бою. Трофей русской армии в Первой мировой. - Москва: Вече, 2015. С. 133.
6. Олейников А.В. Звездный час войсковой конницы. Крымский и Текинский конные полки в наступлении Юго-Западного фронта 1916. Битва гвардий//bgtv.ru. 2021.09.09.
7. Олейников А.В. Текинский конный полк — элитная кавалерийская часть русской армии в период Первой мировой войны // Военно-исторический журнал. № 6. 2016. – С. 10-13.
8. Котюкова Т.В. Туркестанский плен: немецкие и австро-венгерские военнопленные в русском Туркестане в годы Первой мировой войны // ИНИОН РАН. 2017. – С. 48.
9. Глушенко Е. Россия в Средней Азии. Завоевания и преобразования. – М.: Центрполиграф. 2010. – С. 333.
10. Марценюк Ю.А. Местные войска и конвойная стража в Первой мировой войне. – М., 2017. – С. 248
11. Richard A. Pierce. Russian Central Asia. A study in colonial rule (1867-1917). – Los Angeles. 1960. – P. 266.
12. Марценюк Ю.А. Местные войска и конвойная стража в Первой мировой войне. – М., 2017. – С. 194.